

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
U.N.Olimov	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi	336
M.Q.Tolibboev	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analariga doir mulohazalar	340
X.S.Jumanazarov	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
Sh.N.Jo'rayev	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
O.M.Normatov	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
D.G'.Mirzayev	
"Turkiston viloyatining gazetasি" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili	361
A.O.Tairov	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
P.A.Nabihev	
"Farg'on'a vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)"	373
A.A.Mamadjanov	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik mакtabining ilk vakili.....	378
P.A.Arslonzoda	
Tasвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айнӣ	382

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir	389
Z.J.Pardayeva	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman	393
H.Jo'rayev	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
K.A.Jamahmatov	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi	404
X.Jo'rayev, M.Ismoilova	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi	410
I.I.Rustamova	
Dramada sahnada ko'rinnmaydigan qahramon va uning badiiy talqini	413
M.A.Jo'rayeva	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti	417
M.Islomova	
Taqlid va Tasvir	421
D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov	
Isajon Sulton hikoyalarida shamol timsoli	424
X.T.Mirzaev	
Talқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Ғиёсиддин	428
N.Q.Bo'riyeva	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
M.Sh.Dehqonova	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
G.A.Mashrapova	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
Q.V.Yo'lichiyev	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili	449
B.N.Isakova	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati	456



УО'К: 7.036.8:75

TAQLID VA TASVIR**ИМИТАЦИЯ И ИМИДЖ****IMITATION AND IMAGE****Islomova Mohira** 

Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasi doktoranti

Annotatsiya

Maqolada inson hayotining tabiat va jamiyatdagi hodisalar bilan uyg'un jihatlari, ana shu uyg'unlikning badiiy adabiyotda aks etishi masalalari yoritilgan. Qush obrazining ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyoti natijasidagi tadrijiy takomilli haqida so'z yuritilgan.

Аннотация

В статье описываются гармоничные стороны жизни человека с природой и общественными событиями, а также отражение этой гармонии в художественной литературе. Обсуждается постепенное совершенствование образа птицы в результате развития общественно-философского мышления.

Abstract

The article describes the harmonious aspects of human life with nature and social events, and the reflection of this harmony in fiction. The gradual improvement of the image of the bird as a result of the development of socio-philosophical thinking is discussed.

Kalit so'zlar: Tabiat hodisalar, ijtimoiy-maishiy voqealar, qush obrazi, taqlid, badiiy tafakkur, uyg'unlik.

Ключевые слова: Явления природы, общественно-бытовые события, образ птицы, подражание, художественное мышление, гармония.

Key words: Natural phenomena, social and domestic events, the image of a bird, imitation, artistic thinking, harmony.

KIRISH

Adabiyot jamiyat hayotining ko'zgusi, tabiatga taqlidning namunasi bo'lish bilan birga insonshunoslik hamdir. Tabiat va jamiyatda ro'y berayotgan har bir voqe-hodisa badiiy adabiyotda u yoki bu darajada o'z aksini topadi. Shu jumladan, ijtimoiy voqelik hamda muhit munosabatlari, unda ro'y berayotgan jarayonlar ham so'z san'atkorlari tomonidan badiiy tadqiq etiladi, falsafiy-estetik xulosalar chiqariladi. Muayyan ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar olg'a suriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek adabiyoti ham bundan mustasno emas. Istiqlolga erishilgandan so'ng xalqimiz hayotida ro'y berayotgan tarixiy voqe-hodisalar adiblarimiz tomonidan baholiqdrat qalamga olib kelinmoqda. Jumladan, shaxs va jamiyat munosabatlari, inson taqdiri va tabiatdagi jarayonlar muammolari ham adabiyotimizda bir qancha adabiy asarlarning maydonga kelishiga sabab bo'ldi. Adiblarning usslub va dunyoqarashlari, xulosa va pozitsiyalari turlicha bo'lishidan qat'iy nazar, yangi davr, yangicha qarashlar, zamonaviy munosabatlari so'z san'ati namunalarida tobora keng qamrov kasb etib bormoqda. Jahon va o'zbek adabiyoti asarlardagi shaxs taqdiri mavzusi va ulardag'i qahramon ma'naviyati masalalarini hayvonot olami, tabiat hodisalari, jumladan qushlar obrazlari misoldi yangi davr, bugungi kun nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etish, tafakkur prizmasidan o'tkazish alohida tadqiqotlar omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Jahon va o'zbek adabiyotida qushlar obrazi mavzusi va qahramon ma'naviyati muammolari ham bugungi kunda adabiyotimizda atroflicha ishlanib, yangi-yangi qirralari, o'ziga xos xususiyatlari bilan namoyon bo'lib bormoqda. Zero voqelikni qushlar obrazlari orqali tasavvur qilish, tasvirlash, muammolarga yechim axtarish insoniyatga qadimdan xos bo'lgan xususiyatlardan biridir. Qushlar

ibtidoiy tushunchalar asosida jahon xalqlari tafakkuri tarixida dastlab afsonaviy-mifologik, diniy-falsafiy, bora-bora ijtimoiy-maishiy tushunchalar asosida shakllangan. Mayjud diniy-ilohiy kitoblarda Sulaymon payg'ambarning qushlar tilini bilishi, ularni o'z hukm-farmoyishiga bo'y sundira olishi haqidagi rivoyatlar ham buning yaqqol dalilidir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Shu ma'noda ajdodlarimiz qushlar timsoldida majoziy tarzda ifodalagan shaxs va jamiyat munosabatlari turli kishilar ruhiyatiga, ma'naviy olamiga turlicha ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

Sharq xalqlari tafakkurida qadim zamonlardan buyon inson joni(ruh) qush sifatida tasavvur etib kelingan. Badiiy adabiyotdagи "jon qushi", "ko'ngil qushi", "murg'i dil", "tayiri quds" va shu kabi iboralar mazkur tasavvur bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, tasavvufiy tushuncha va g'oyalarni ifodalashda majoziy usuldan foydalanish zarurati tug'iladi-ki, buning natijasida qushlar tili bilan bayon qilingan asarlar vujudga keldi. Jumladan, Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"ida "ruh qushi", "jon qushi", "jon bulbuli" singari istioraviy iboralar ko'plab uchraydi. Bunday ramziy obrazlar ishq va oshiqlik, zikr va zokirlik, dunyoning o'tkinchiligi mavzulari talqinida tashbeh, istiora san'atlari vositasida qo'llangan:

*Tili, ko'ngli, sirri birla zokir bo'lub,
Uch yuz oltmishtomurlari nurg'a to'lub,
Yozu qishin bulbuldayin vola bo'lub,*

Sayrashubon shoxdin shoxqa qo'nar, do'stlar. [2. 80]

Xalq orasida bulbul obrazi bilan bog'liq ko'plab maqol, matal, rivoyatlar mashhur. "Qarqunoqdan bulbul chiqibdi" iborasi ham shular jumlasidan. Ba'zan noshud va notavon kishilarning farzandlari udli-shudli, uddaburron va tadbirkor bo'lib tanilsa, ana shu matal tilga olinadi. Mashhur adib Abdulla Qahhor o'zining "Shohi so'zana" asarida xalqning "Bulbulning ham erkagi sayraydi" iborasini qo'llaydi. Bundan muddao oilada ham, mahalla-ko'nda ham erkak kishi tashabbuskor bo'lishi, ro'zg'orni but, turmushni farovon qilishda uning roli kattaligini ta'kidlashdir. Ammo vaqtlar o'tgan sari bulbul obraziga yuklangan ijtimoiy salmoq orta bordi. Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy o'z ruboilyaridan birida bulbulning erkka tashnaligi, undagi vatan tuyg'usi kuchli ekanligi, xorijagi oltin qafasdan ko'ra ona yurti tikanzoridagi oshyon ni azizroq ekanligi yuksak mahorat bilan ifodalab berilgan. Bu an'ana asrlar davomida badiiy adabiyotda yangi-yangi qirralari bilan namoyon bo'lib bordi. Zamondoshimiz Erkin Vohidovning "Uzoqqa bormadik andisha bilan" she'rida quyidagi misralar bor:

*Gul bo'l, tikanak bo'l – chamaningda bo'l,
Bulbul bo'l, qarg'a bo'l – vataningda bo'l.* [8. 466]

Vogelikka baho berishda xolis bo'la olishimiz, har bir shaxsning ijobiy xususiyatlarini turmush tarzimizga tatbiq etishimizda ham ijtimoiy hayotning ko'zgusi bo'lgan so'z san'ati – adabiyot bizning yaqin maslakdoshimiz, tarbiya vositasi, ta'sir ko'rsatish omiliga aylanishi shubhasiz. Shuning uchun ham so'ngi yillarda jamiyat va inson taqdiri masalasi adabiyotning eng dolzarb va muhim muammolaridan biriga aylandi. Qushlar timsoli orqali badiiy ifodasini topgan shaxs shakllanishi jarayonining inson o'zligini anglashi, moddiy turmushining yaxshilanishi, ma'naviy olamining boyishi, vogelikka munosabat singari muammolarning badiiy yechimi, odamlar ruhiyatidagi xilma-xil evrilishlarni tadqiq etish yuqoridagi asarlarning g'oyaviy-falsafiy maqsadiga aylangan.

Taniqli adib Tog'ay Murod Seton Tompsonning Parrandalar va hayvonlar haqida hikoya qiluvchi "Yovvoyi yo'rg'a" asarini tarjima qilib, unga o'zi so'zboshi yozgan. So'zboshida biz bahs yuritayotgan mavzuga aloqador quyidagi fikr-mulohazalar bor: "Badiiy adabiyotda jonivorlarni tasvirlashning ma'lum bir mezoni, ma'lum bir qolipi paydo bo'ldi. Bu mezon bora-bora shakllanib, odatdagagi risolaga sig'may qoldi. Keyin-keyin jonivorlar badiiy adabiyotda bir vositachi sifatida tasvirlanadigan bo'ldi." [6. 6-7]

Inson dunyoga keladiki, nurga, ezgulikka, erkka intilib yashaydi. Har bir shaxs va u mansub bo'lgan millat uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi. Bu shakllanish jarayonlari o'ziga xos tabiiy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda kechadi. Shunday qilib, qush timsolidagi adabiy qahramon yoki uning prototipi bo'lgan shaxsning shakllanishiga u mansub bo'lgan xalqning xo'jalik mashg'uloti, maishiy turmushi, ijtimoiy muhitigina emas, umuman, butun ijtimoiy munosabatlar majmuasi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Inson ruhiy-ma'naviy hayotini ana shu ijtimoiy munosabatlar belgilaydi. Badiiy

ADABIYOTSHUNOSLIK

asarda xalq ruhini ifodalash darajasi so'z san'atkorlarining ana shu xalq, mehnatkash omma bilan yaqinligiga bog'liqdir.

O'zbek xalqining kundalik muloqotidagi qush timsoli bilan bog'liq ko'plab tushunchalar badiiy bo'yoq, estetik ta'sirchanlik tufayli folklor namunasi sifatida yashab kelmoqda. Maqol, matal ko'rinishidagi ana shunday adabiy hodisalar qush - odam, yoki odam – qush munosabatlarda ba'zan o'git, ba'zan tanbeh, gohida kesatiq yoki dashnom sifatida muloqot tarkibida uchrab turadi. Inson xarakteri, fe'l-atvori, turmush tarzi bilan bog'liq hukm hamda xulosalar ham aynan qush obraziga tayangan holda ifodalanadi.

Qayga bormay, boshda do'ppim,

G'oz yurarman faxr etib,

Olam uzra nomi ketgan

O'zbekiston, o'zbegim. [8. 119]

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov "O'zbegim" qasidasida milliy g'urur, sha'n va iftixorni lirik ifodalar ekan, g'oz obraziga murojaat qiladi.

Bugina emas. G'oz obrazi qo'lidan kelmaydigan ishlarga urinadigan, huda behudaga maqtanadigan kimsalarga dashnom berishda, tanqid qilishda ham qo'l keladi. "Chiranma g'oz, hunaring oz" matali aslida ko'kda ucha olishi, suvda suza olishi, yerda yura olishi bilan maqtangan, ammo ko'kda lochindek ucha olmasligi, suvda baliqdek suza olmasligi, yerda kiyikdek chopa olmasligi eslatilgach, mulzam bo'lган g'oz haqidagi masalning xulosasi, ya'ni qissadan chiqarilgan hissadir.

Ba'zi kishilar tabiatida o'zida yo'q narsalarga ishtiyoyq baland bo'ladi. "Qo'shnining o'rdagi g'oz ko'rinxur" matalida ham ana shunday kishilar fe'l-atvoriga ishora, yashirin hasadni fosh qilish maqsadi mujassam.

XULOSA

Matbuot xabarlariga qaraganda, yaqinda yapon olimlari qushlarning bo'yniga taqib qo'yilgan moslamalar orqali ularning nima demoqchi bo'layotganini aniqlashga muvaffaq bo'ldilar. Demak, birinchidan, insoniyatning qushlar olamiga qiziqishi va ular bilan muloqotga kirishish ishtiyogi bugungi kunda ham so'ngani yo'q. Ikkinchidan, ajodolarimiz o'zlarining falsafiy mushohadalarini, g'oyaviy maslaklarini qushlar obrazi orqali ifodalashlarida ham muayyan darajada ilmiy asos bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алишер Навоий. Лисон-ут тайр. Тошкент. 1989
2. Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат.-Тошкент: Наврӯз, 2018.
3. Калила ва Димна. Таржимон С.Фаниева. Тошкент. 1966
4. Гулханий. Зарбулмасал. Тошкент. 1959
5. Ўзбек насли тарихидан. Тошкент. 1984
6. Сетон-Томпсон. Ёввойи йўрга. Тоғай Мурод таржимаси. Т.: 1990
7. Сайфиддин Рафиддин. Мажоз ва ҳақиқат. Т.: 1998
8. Воҳидов Э. Танланган асарлар. Тошкент. 2019